

**Nafisa Husanova Burxanovna**

**Sadoqat Adilova Nurullayevna**

*Ko'dala tumani 58-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Fonetik uslubni o'qitishdagi muammolar, bu ayniqsa bugungi kunda ona tilining dolzarb yechimlaridan biri hisoblanadi. Bu o'quvchilar o'rtasida yechimini qiyin bo'lgan muammo hisoblanmasada, uni o'qitish anchagina e'tiborni talab qiladi. Shuning uchun ham, mazkur maqolada fonetik uslubni o'qitishdagi muammolarni yanada kengroq yoritib berishga harakat qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Fonetika, jurnalistika, uslub, umumxalq, adabiy til, ko'rgazmali qurol, notiqlik, metodika;*

### **Kirish**

Bugungi kunda fonetik uslubni o'qitish, oliy maktab filologik ta'limini yo'lga qo'yishda ushbu fan hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, o'zbek tili o'qitish metodikasi tizimdan o'rin olgan boshqa har qanday fanni o'qitishning samaradorligi uchun tayanch hisoblanadi. Shuning uchun ham fonetik uslubni o'zlashtirish nafaqat ta'lim tizimi, balki xalq xo'jaligining boshqa sohalarida uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

### **Asosiy qism**

Maqolani boshlashdan avval uslub haqida tushunchaga ega bo'lsak. Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda birbirlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilmaxil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimediyaviy vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

Umumta'lim maktablarida dars berayotgan aksariyat ona tili o'qituvchilari, afsuski, bugungi ona tili ta'limi maqsadi nimaligini, xususan, fonetika o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima ekanligini, davlat va jamiyatning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatib turibdi. Tan olish kerakki, mazmunan yangi, zamon

ruhiga mos darslik, qo'llanmalar chop etilib, amaliyotda o'z samarasini bermoqda. Biroq yagona darslik bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Ba'zan darsliklarda uchraydigan kamchiliklarni to'ldirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aynan fonetika mavzusini o'qitishda darslikda berilgan o'quv materiallari zarur ko'nikma va malakalarni o'quvchiga berishda yetarli bo'lmayotgani kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Birgina talaffuz masalasini oladigan bo'lsak, respublikamizning turli hududlari bilan bog'liq turli tovushlarning talaffuzida muammolar uchraydiki, uni bartaraf qilish uchun darslikdagi ikkita yoki uchta mashq kamlik qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozimligini ham unutmashimiz zarurligini, ayniqsa, ba'zi rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishini, bu masalaning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini qat'iy ta'kidlaydilar. Mazkur masalaning yechimi ham albatta, maktab bilan, ona tili, xususan fonetika o'qitish bilan bevosita bog'liqdir.

Buning uchun, avvalo, ta'limning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalarini belgilamay turib, zamon talabiga mos bo'lgan ijodiy tafakkur sohibini yetishtirib bo'lmaydi. Uni amalga oshirish, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Oliy maktabning filologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning bu boradagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish «Ona tili va adabiyotni o'qitish metodikasi» fanlari zimmasiga tushadi.

Chunki umumiy o'rta ta'limdagi o'qitish jarayonini mantiqiy fikrlash asosida tashkil etish, hozirgi kun muammo va talablari bilan uyg'unlashib ketgan. Qolaversa, bu talab DTSning asosiy prinsiplariga tayangan holda ish ko'radi.

Shu bilan birga, bu masalaga mantiqiy ko'z bilan qaraydigan, eng muhimi, xalqimizning ko'pmillatli ekanini inobatga oladigan bo'lsak, ayrim milliy guruhlar Kirill yozuvini ishlatishini nazarda tutib, yuqorida tilga olingan qonunda bu imlodan foydalanish uchun ham imkoniyat yaratish ko'zda tutilgan.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, til sathlarini o'qitishda duch kelinadigan asosiy muammolar: to'g'ri talaffuz, imloviy savodxonlik, zarur so'z boyligi, til vositalaridan unumli foydalanish malakasi va albatta, mustaqil yoki ijodiy fikrlash ko'nikmalaridir. Sanab o'tilganlarning deyarli hammasi bilan o'quvchilarni qurollantirish, asosan, tilning fonetika bo'limi zimmasidadir. Ma'lum bo'lishicha, boshqa bo'limlarga qaraganda fonetika bo'limi o'quvchilarda zerikish uyg'otmoqda. Umumta'lim maktablarida dars berayotgan aksariyat ona tili o'qituvchilari, afsuski, bugungi ona tili ta'limi maqsadi nimaligini, xususan, fonetika o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima ekanligini, davlat va jamiyatning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatib turibdi.

Tan olish kerakki, mazmunan yangi, zamon ruhiga mos darslik, qo'llanmalar chop etilib, amaliyotda o'z samarasini bermoqda. Biroq yagona darslik bilan muammoni hal



qilib bo'lmaydi. Ba'zan darsliklarda uchraydigan kamchiliklarni to'ldirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aynan fonetika mavzusini o'qitishda darslikda berilgan o'quv materiallari zarur ko'nikma va malakalarni o'quvchiga berishda yetarli bo'lmayotgani kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Birgina talaffuz masalasini oladigan bo'lsak, respublikamizning turli hududlari bilan bog'liq turli tovushlarning talaffuzida muammolar uchraydiki, uni bartaraf qilish uchun darslikdagi ikkita yoki uchta mashq kamlik qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarurligini, ayniqsa, ba'zi rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishini, bu masalaning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini qat'iy ta'kidlaydilar. Mazkur masalaning yechimi ham albatta, maktab bilan, ona tili, xususan fonetika o'qitish bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun, avvalo, ta'limning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalarini belgilamay turib, zamon talabiga mos bo'lgan ijodiy tafakkur sohibini yetishtirib bo'lmaydi. Uni amalga oshirish, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Oliy maktabning filologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning bu boradagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish «Ona tili va adabiyotni o'qitish metodikasi» fanlari zimmasiga tushadi. Chunki umumiy o'rta ta'limdagi o'qitish jarayonini mantiqiy fikrlash asosida tashkil etish, hozirgi kun muammo va talablari bilan uyg'unlashib ketgan. Qolaversa, bu talab DTSning asosiy prinsiplariga tayangan holda ish ko'radi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fonetik uslublarni bilish va o'rganish barcha uchun birdek muhimdir. Shu jumladan fonetik uslubdagi barcha muammolarga yechim topib, ular ustida ish olib borish nutqimizning ravon bo'lishiga sabab bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010
2. Matchonov S., G'ulomova X. Ona tili darslarida nutq ohstirish. //Boshlang'ich ta'lim. 2004.
3. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013
5. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003